



**1991-yildan
chiqa boshlagan**

2022-yil. 4-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

L ANGUAGE AND LITERATURE
T EACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz

**MASHHUR O'ZBEK YOZUVCHISI ABDULLA QODIRIY TAVALLUDINING 128 YILLIGI
YURTIMIZ TA'LIM MUASSASALARIDA KENG NISHONLANDI**



Ushbu sonda



Dolzarb mavzu

3
bet



Tahsil

21
bet



Tadqiqotlar

36
bet



Языкоzнание

53
bet

Kitob – madaniyatlararo
muloqot vositasi

Umumiy o'rta ta'lilda
Navoiy ijodini o'rganish
muammolarini

Sifat+ot modelidagi
komparativ birikmalarning
derivatsion xususiyatlari

Отражение
коронавирусных
инноваций в лексико-
семантической системе
современного русского
языка

ONAMNING OVOZIDA O'QILGAN KITOBLAR SEHRI

“Yosh kitobxon” tanlovi g’olibi bo’lishimga ko’maklashdi



**Sevinch AVAZOVA,
“Yosh kitobxon – 2022” respublika
ko’rik tanlovi g’olibasi**

Inson kamoloti, uning hayotdagi yutuqlarida oiladagi muhit, ustoz-murabbiylar mehnati birlamchi manbalaridan hisoblanadi. Bolaligimda harflarni tanib o’qiy boshlaganimdan so’ng onam har safar bozorga borganlari da bittadan ertak kitob olib kelib berardilar. Onamning ilk kitob tuhfasi va men mutolaa qilgan birinchi to’plam “Zumrad va Qimmat” nomli o’zbek xalq ertaklari edi. Onam sababli dastlab o’zbek va jahon xalqlarining sara ertaklari, keyinchalik turli sarguzasht, fantastik adabiyot durdonalari bilan oshno tutindim va kitoblar olamiga butunlay sho’ng’idim.

2006-yilda O’rta Chirchiq tumanidagi 53-maktab (hozirda Yangihayot tumanidagi 336-maktab)ning 1-sinfiga qabul qilindim. Maktabdagagi ona tili va adabiyoti fani ustozim Nurxon Bozorova bilan fan olimpiadalariga tayyorgarlik jarayonida ham ko’plab badiiy adabiyotlarni mutolaa qildim. Buning ta’sirida o’zim ham she’rlar, hikoyalar mashq qila boshladim. 5-6-sinfda tahsil olayotgan chog’larimda mashqlarimni ko’rib qolgan onam meni tumanimizdagagi “Mash’al” ijtimoiy-siyosiy gazetasi tahririyatiga yetaklab borganlar. U yerda ustozlarim - Ma’murjon Bozoraliyev, Anora Karimovalardan she’r yozish texnikasini, badiiy adabiyot sirlarini o’rganib bordim. Keyinchalik ustozim Go’zaloy Solih qizi meni O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasidagi “Onajonim she’riyat” to’garagiga olib borganlar. Shu tariqa ustoz shoir-yozuvchilardan mahorat darslarini olib mashqdan mashqqa o’sishga harakat qildim.

2017-yilda Yosh ijodkorlarning an’anaviy Zomin seminarida “Bolalar adabiyoti” yo’nalishi bo’yicha qatnashish va Xudoyberdi To’xtaboyev, Anvar Obidjondek taniqli ijodkorlar bilan tanishish, ularning adabiyot, ijod

sirlari, iste’dod kabi turli mavzulardagi fikrlarini tinglash baxtiga tuyassar bo’ldim.

Bu yil men uchun qo’shaloq bayram - “Yosh kitobxon” tanlovi g’olibaligi bilan birga O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan “Kulgichimda otadi tonglar” nomli birinchi kitobim o’n ming nusxada chop etib berilapti.

“Yosh kitobxon” tanloviga tayyorgarlik jarayoni juda ham qizg’in kechdi. Ham ko’z, ham quloq xotirasini orqali ro’yxatdagagi adabiyotlarni mukammal darajada o’qishga va eslab qolishga harakat qildim. Ya’ni dastlab asarlarini o’zim o’qib chiqardim, so’ngra audiolarini eshitib, fikr yuritdim. Lekin hamma kitoblarning ham audilarini topolmadim. Shunday paytlarda mega ko’mak berib onam ko’plab kitoblarni o’zları o’qib, ovozlarini dikta-fonga yozib menga yuborib turdilar. Onamning mehrli ovozlarini tinglab uy ishlarini ham qilishga ulgurardim, olis yo’llarim ham yaqin bo’lib qolaverardi. Bunda o’qilgan badiiy asarlarning ta’siri va hikmati ham quloglarimga qo’rg’oshindek qo’yilaverardi.

Ayniqsa, “Qiziqarli geografiya”, “Qiziqarli bilimlar ola-mida” nomli ilmiy kitoblarni oilaviy o’qib, savol-javoblariga birgalikda tayyorgarlik ko’rganimiz xonadonimizdagagi barchaga ham zavq-shavq ularshardi. Dasturxon atrofiga jam bo’lganimizda ota-onam, ukalarim “dunyodagi eng kichik qush qaysi?”, “Eng katta ko’lning nomi nima?”, “Eng baland sharshara qayeda joylashgan?” kabi savollar bilan mening bilimlarimni sinovdan o’tkazishardi.

Otam uyimiz yaqinidagi zavodda haydovchi bo’lib ishlaydi. Onam uy bekasi. Garchi ular oliy ma’lumot olishmagan bo’lishsa-da, biz farzandlarning ta’lim olishimiz uchun barcha sharoitlarni imkon qadar muhayyo qilishgan.

Quvonarlisi, hozirda oilamizda 3 nafar talaba tahsil olmoqda. “Yosh kitobxon” tanloviga tayyorgarlik ukalari rimning ham Kitobxon bo’lishiga, ilm-fanga qiziqishi oshishga katta turki bo’lgan aniq.

Ispan yozuvchisi Megel Servantesning “Don Kixot” romanida Don Kixot o’zi yashayotgan temir asrni oltin asrga aylantirishni, ezilgan, mazlum odamlarni himoya qilishni va mana shu oliyanob ishlarining shon-shuhurat tufayli o’z qishlog’i ham shuhrat qozonishini orzu qiladi. Shu sababli ham o’ziga “lamanchlik Don Kixot” degan nomni oladi. Men ham kelajakda umuminsoniy ahamiyatga ega shunaqangi yaxshi ishlar qilsam-da, odamlar o’zbekistonlik Sevinch deya atashsa, deb niyat qilaman. Hozirda Alisher Navoiy nomidagi ToshDO’TAU filologiya fakultetining 4-bosqichida tahsil olyapman. “Bahrom va Gulandom” dostoni bo’yicha ilmiy ish yozyapman. Kelgusida magistratura bosqichida ham ta’lim olib, yetuk olima bo’lmoqchiman.

**Parizoda Ro’ziboeva,
Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori,
“Zulfiyaxonim qizlari” klubi a’zosi**

ZONIM KOMPONENTLI FRAZEMALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

(Ulug'bek Hamdam asarlari misolida)

Til sohibining dunyoni bilishi, ko'r kam nutq ko'nikmalarini shakkantirishida, shubhasiz, iboralar, maqol va matallar, o'xshatish-qiyoslashlar muhim o'ren tutadi. Zero, til – madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili ni o'rganish barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi. Shu ma'noda har bir lingvomadaniyatda etnosning mentaliteti, o'ziga xosligi, milliy-madaniy xususiyatlari aks etadi. O'zbek lingvomadaniyatshunosligida mayjud zoonim komponentli frazemalar ham xalqimizning o'ziga xos dunyoqarashi, voqelikni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslashi, qiyoslashi mahsuli sifatida shakllanib, taraqqiy etgan. Xususan, bunday birliklar yozuvchi-adiblarimiz asarlarda aynan yoki qayta ishlangan holda qo'llanib, lingvopoetik salmoq kasb etadi. Fikrimizning tasdig'i sifatida yozuvchi Ulug'bek Hamdam asarlarda qo'llangan ba'zi zoonim komponentli frazemalarga to'xtalishni joiz deb topdik:

– Qariyaning bo'lsa ichini it tirnardi: nima qilsam ekan, haliyam bo'lsa podani tepaga haydasammi yo bu o'rinsiz tashvishmi? [4: 205] Ichini it tirnamoq – yashirin holda ruhan bezovtalanmoq, tashvishlanmoq. [3: 116] Odatta, mazkur ibora insonning boshqalardan yashirin siri, muammosi yoki birov bilib qolmasligi uchun xavotirda bo'lib, buning yuzaga chiqishidan qo'rqqan holatini tasvirlashda qo'llaniladi;

– Sakkiz tonna!.. – kapalagi uchib ketdi Akbarning. – Og'ayni, yana bir marta tortgin, adashayotgandirsan balki... [5: 11] Kapalagi uchib ketmoq iborasini kutilmagan yoxud xayoliga kelmagan noxush fikrdan yoki yangilikdan hayratlanish oqibatida umidsizlik, tushkunlikka tushgan kishiga nisbatan ishlataladi;

– Larisa xola og'ir uyg'ondi. Ko'pdan shunaqa. Ayniqsa, rahmatli eridan keyin hayhotdek uyda o'zini yolg'iz his qilgach, ba'zan kechalari bilan mijja qoqmaydigan odat chiqaradi. Qush uyqu. [5: 20] Hayvonot va parrandalar olamida kam uxdlaydigan jonzotlardan biri bu, shubhasiz, qushlar bo'lib, hatto uchayotganda ham uxlashi ilmiy jihatdan o'z tasdig'ini topgan. Shu bois xalqimizda bu ibora kamuyqu kishilarga nisbatan qo'llanadi. Adib mazkur iborani qo'llash orqali, bir tomondan, obrazli tasvirga erishgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ekspressivlikti ta'minlagan. Bunga iboraning ixcham shakldaligi ham qo'l kelgan;

– Manavi dorilarni, qanaqa qilib ichishni bilasiz. Nafsingizni tiyib, yog'li narsalardan parhez qiling, yo'qsa, anqoning urug'i ham kor etmaydi sizga... – dedi. [5: 6] Anqoning urug'i – topilishi qiyin, kamyob ma'nosini anglatadi. Anqo – afsonaviy qush. Tasavvurlarga ko'ra u insonlar ko'ziga ko'r inmaydi, qanoti, pati oltin, kumush va javohirlardan deb ta'riflandi. Xalq orasida anqoga nisbatan baxt, tole, davlat qushi, kimga soyasi tushsa, o'sha baxtli bo'ladi, degan qarashlar mavjud. Shuning uchun taqchil, kamyob narsalarga nisbatan "anqoning urug'" iborasi ishlataladi. Yozuvchi asarda ushbu iboradan ham personajlar nutqida unumli foydalangan;

– Mana, Samandar bilan Azizaning oralaridan ola mushuk o'tib, endi har qaysisi alohida turgani uchun yigitcha o'ttachalar qatoridan ham pastga tushib ketgan mish. [6: 70] Ola mushuk o'tmoq iborasini adib orasi buzilmoq, oralarida nizo paydo bo'lmoq ma'nosida mohirona qo'llagan.

– Yog'du, go'zalim, sevgilim!.. Sen ham kut! Men o'lganim yo'q! Tirikman! Sening yoding bilan necha bor ajdarho komidan omon chiqdim, axir!.. [7: 44] Ajdarho komidan omon chiqmoq – afsonaviy katta ilon, uning oldidan omon chiqish juda dushvor. Yozuvchi urush vaqtini shunga qiyoslab, qahramonni juda qiyin yerlardan omon chiqqanini ushbu frazema orqali juda chiroyi ko'rsata olgan;

– Ulug'larning tizgini esa, shu tobda Oychechak opaning qo'lida bo'lib, u birdan malikaga aylangan cho'ri ayoldek havolaniib g'o'z yurar, cho'ng hovli-joyda boshlanib ketgan chaqaloq to'yining miridan sirigacha bilib-kuzatib, marosimning eng mayda irimigacha o'zi nazorat qilar, bularning hammasidan olam-olam zavq-u shavq tuyardi. [7: 80] G'o'z yurmoq – qaddini tik tutib yurish. Yozuvchi xursand-chiliqi ichiga sig'magan asar qahramoni Oychechak opaning holatini ushbu ibora bilan ifodalagan.

Umuman, frazeologik birliklar millatning ruhi, mentaliteti, turmush tarzini aks ettiradi. Frazeologik qatlarning aksariyat qismini esa zoonim komponentli frazeologizmlar tashkil etadi. Ular hayvon nomlari bilan yasalib, jismoniy sifat, tashqi ko'rinish, xarakter belgilari, intellekt, inson faoliyati kabilarni o'zida mujassamlaydi. Shuningdek, Ulug'bek Hamdam ijodida zoonim komponentli frazemalar nihoyatda ko'p qo'llangan bo'lib, bunday ifodalar adib asarlarining ifodali va o'qishliligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.
2. Воробёв В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. – Москва, 1997.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent, 1978.
4. Hamdam U. Muvozanat. – Toshkent: Sharq, 2007.
5. Hamdam U. Isyon va itoat. – Toshkent, 2013.
6. Hamdam U. Samandar va Sabo. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
7. Hamdam U. Ota. – Toshkent, 2020.



«Til va adabiyot ta'limi»
«Преподавание языка и литературы»
«Language and literature teaching»

Поиск по сайту

Kengaytirilgan qidiruv

Katalog

- Yangiliklar** >
- Adabiy taqvim** >
- Jurnal** >
- Elektron ilova**
- Tanlovlар** >
- Maqola topshirishga qo'yilgan talablar**
- Arxiv**

Home / Elektron ilova

Elektron ilova



Home / Jurnal / Jurnalning elektron shakli / 2021-yil

2021-yil

Fayzullayev Xolmo'min, Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi / Qisseda "Tabiat yorig'" konsepsiysi

Artikul: Yo'q



- Solishtirish

O'zbek tilida

[Download](#)

TANISHIB CHIQING

- 1 + Savatga

Shakhnoza Sultanova, Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, teacher/ Linguistic principles of compiling grammar term e-dictionaries

Artikul: Yo'q



- Solishtirish

O'zbek tilida

[Download](#)

TANISHIB CHIQING

- 1 + Savatga

Nurboylabborov, filologiya fanlari doktori, professor/Furqat fomenmen

Artikul: Yo'q



- Solishtirish

O'zbek tilida

[Download](#)

TANISHIB CHIQING

- 1 + Savatga

12-son. 2021-yil (o'zbek tilida)

Artikul: Yo'q



- Solishtirish

10 400 SO'M

[Buyurtma qiling](#)

11-son. 2021-yil (o'zbek tilida)

Artikul: Yo'q



- Solishtirish

10 400 SO'M

[Savatga](#)

10-son. 2021-yil (o'zbek tilida)

Artikul: Yo'q



- Solishtirish

10 400 SO'M

[Savatga](#)

O'QITUVCHILAR VA YOSH ILMUY TADQIQOTCHILAR DIQQATIGA!

Sizga kasbiy faoliyatda yordamchi ilmiy-metodik jurnalning "tilvaadabiyot.uz" sayti Elektron nashr sifatida ro'yxatdan o'tdi.

Demak, Siz mutolaa qiladigan nashrlar soni bittaga ko'paydi. Ilmiy-metodik, adabiy-badiiy elektron nashr Sizni ilm-fan va adabiy jarayonga doir yangiliklar bilan tanishtirib boradi.

Elektron jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi nashr hisoblanadi.

Siz maqolangiz chiqqan nashrni Internet tarmog'idan bevosita yuklab olishingiz mumkin.

Maktab o'qituvchilarining elektron jurnalda chop etilgan maqola va metodik ishlalmalari Respublika miqyosida ommalashtirilgan metodik material sifatida e'tirof etilib, tegishli SERTIFIKAT taqdim etiladi.

Telegram manzili: https://t.me/TAT_jurnal

Tahririyat manzili: Mirobot tumani Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Telefon raqamlarimiz:

Bosh muharrir o'rinnbosari: (71) 233-03-22

Mas'ul kotib: (71) 233-03-10

Adabiyot o'qitish metodikasi bo'limi: (71) 233-03-45

Til o'qitish metodikasi bo'limi: (71) 233-03-67

Chet til o'qitish metodikasi bo'limi:

(71) 233-03-67


Преподавание языка и литературы:

(71) 233-03-67

Hisobxona: (71) 233-03-68



@TAT_JURNAL



ISSN 2010-5584

9772010 558000

INDEKS 872